

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI UMUMINSONIY  
QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY – AXLOQIY TARBIYALASH  
MAZMUNI VA AMALIY AHAMIYATI.**

*Tavbayeva Sabohatxon Anorboy qizi*

*JDPU Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*Maktabgacha ta'lismi 2- kurs magistranti*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni hamda uning ijtimoiy asoslari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar** Umuminsoniy qadriyat, ma'naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, milliy qadriyatlar, ma'naviy yaqinlik, milliy qadriyatlar.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkentda bo'lib o'tgan « Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash- davr talabi » mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi.

« Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob -axloqi, yurish – turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks- sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan», deya ta'kidlagan.

Mamlakatimizda ta'lismi -tarbiya sohasining ilk bo'g'ini bo'lgan – maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta'mirlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy

qadriyatlar asosida tarbiyalashdan asosiy maqsad – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o’zida ma’naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g’oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda.

Avvalo qadriyat nima ? degan savolga to’xtalamiz.

**Qadriyat** - inson va insoniyat uchun ahamiyatli barcha narsalar erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy.Uning negizi milliy qadriyatlarimizdir.

**QADRIYATLAR** – jamiyatda kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, xurmatga,nufuzga ega kishilar, munosabatlar, xolatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasidir.

**Milliy qadriyatlar** - millat uchun ahamiyatga ega bo’lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog’liq xoslik shaklidir. Dunyoda o’ziga xos qadriyatlari bo’lmasan millat yo’q.

Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog’liq holda namayon bo’ladi. Keyingi vaqtarda O’zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu Ona yurtga ehtirom, avlod – ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, xayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Qadriyatlar o’z mohiyatoga ko’ra xilma -xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy – siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi.

Qadriyatlarning eng oliysi insonning o’zi, hayoti, huquqi va erki, sog’lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr- qimmatini, sharafini ulug’lash jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning « Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va

jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz », degan fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch g’ayrat bag’ishlamoqda.

Ma’naviyat inson ruhiyatini ifodalaydi. Ya’ni o’zligini anglash, did – farosat, aql- idrok, yaxshilik yomonlikdan, ezhulikni jaholatdan, adolatni razillikdan, ogohlilikno loqaydlikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyatini belgilaydi.

Ma’naviyat cheksiz borliqning inson ruhida ifodalanishi hamda komil insonning ongi, qalbi, vijdonidir.

**Umuminsoniy qadriyat** – jaxon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiyl manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o’zida ifoda etadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilarni misollar keltirishimiz mumkin :

**Adolat** – har bir kishiga nima uchun intilsa, shuncha narsaga yarasha munosibligini berish.

**Ozodlik** – bu har qanday qatag’onsiz va o’z harakatlariga javobgarlikni o’z zimmasiga olib, uchinchi shaxslarga zarar yetkazmasdan harakat qilishimiz kerak bo’lgan qobiliyatdir.

**Sevgi** – bu odamlar yoki tabiat bo’lsin, bizni o’rab turgan narsalarga bo’lgan mehr tuyg’usidir.

**Halollik** - bu samimiylit bilan bog’liq, bu fazilat bo’lib, u kishi o’ylyadigan, aytadigan va qiladigan narsalar o’rtasida izchil harakat qiladi. Halol inson bo’lish nafaqat majburiyatlarni bajarish, balki hayotning barcha sohalarida tik va shaffof yo’l tutishni anglatadi.

**Do’stlik** - bu insonlar o’rtasida aloqalarni o’rnatishga imkon beradigan tuyg’u. Bu sevgi bilan bog’liq.

**Hamjihatlik** – bu o’zgalardan biror bir narsani kutmasdan, boshqalar bilan hamkorlikda o’zini tutadi. Bu boshqa odamlarga nisbatan ma’suliyat usulidir.

**Minnatdorchilik** – bu kimdir siz uchun biror narsa qilganini tan olish va ularga shubha qilmasdan minnatdorchilik bildirishdir.

**Hamdardlik** – bu har bir inson boshidan kechirgan shaxsiy vaziyatlarni tushunish uchun o’zini boshqa odamlarning o’rniga qo’yish qobiliyatidir.

**Qat’iylik** – qanday qiyinchiliklar va to’siqlardan qat’I nazar, hohlagan narsangizni qanday qilib diqqat markazida saqlashni bilishingiz kerak.

**O’rganish** - bu yangi bilimlarni olish qobiliyatidir, bu bizga yaxshiroq inson bo’lishga yordam beradi. Ochiq fikrga ega bo’lish yaxshi o’rganish uchun juda muhimdir.

**Hurmat** – bu boshqalarni munosib mavjudot sifatida ko’rish, ularning qadriyatlari va afzalliklarini hisobga olishdir.

**Tinchlik** – tinchlikka ega bo’lish va uni berish jamiyat a’zolari o’rtasida tinch, uyg’un va muvozanatlari yashash uchun foydaliligin anglatadi.

**O’zligini boshqara olish** – aynan shu qobiliyatni biz boshqalarga va o’zimizga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan impulslarni, hissiyotlarni va o’ylamasdan harakatlarni boshqarish uchun rivojlantirishimiz kerak.

**Sadoqat** – bu odamlardan, bizni do’stlik rishtalari bog’laydigan odamlardan yuz o’girmaydi. Bu ba’zi bir odamlarga bo’lgan mehr- muhabbatni his qilish va ularga har qanday hujumga uchragan taqdirda ularni himoya qilishda harakat qilishdir.

**Altruizm** – bu insoniyatga muhabbat, buning evaziga hech narsa kutmasdan, boshqalarning manfaati uchun harakat qilish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda ularga birinchi navbatda inson mehnati, xatti -harakati, aql zakovati bilan yaratilgan « ikkinchi tabiat », ya’ni turli tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob – uskunalar, turar joy, mol- mulk, noz- ne’mat vas hu kabilar moddiy qadriyatlar ekanligini tushuntirish lozim. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatları – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, tarbiyachilarining tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqotida namayon bo’ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni

umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o’zbek oilalarida, jaomatchilik o’rtasida bola tarbiyasini amalga oshirishda katta tajribalar mavjud. Bu tajriba asrlar davomida o’tib, milliy qadriyatga aylanib ketdi. Bu qadriyatlar bolalarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, kamtarlik kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Shu sababli o’zbek yoshlari o’zining tarbiyasi, mehnatsevarligi, kattalarga hurmat e’tibori, kamtarligi, andishaliligi, halolligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni faqat mashg’ulot jarayonida amalga oshirib bo’lmaydi. Bu jarayon maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mashg’ulotdan keyingi vaqtlarini taqsimlashlarida ham asosiy o’rinni egallashi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan jamiyatimizga sog’lom fikrli avlodni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish uchun ota-onalar va tarbiyachilar hamkorligi mihim masalalardan hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti, oil ava jamoatchilik, hamkorligini mustahkamlash – yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim omillardan bo’lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

- 1.Karimov I.A. “ O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida ” T :2011
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2- jild. -T.: “ O’zbekiston ”, 1996
- 3.Asqarov M, Xaytboyev M, Nishonov M. Pedagogika. Darslik. T. :Talqin, 2008.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O’zbekiston, 2008.